

PAPER

PAHLAVON MAHMUD RUBOIYLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Abdumannonova Muborakxon Shuhratbek qizi¹, * and Saidaliyeva Muslimaxon Soibjon qizi²

¹Qo' qon Universiteti Andijon Filiali talabasi and ²Qo' qon Universiteti Andijon Filiali talabasil Institute

* nozima241@gmail.com

Abstract

Mazkur maqola XIII asrda tug' ilib o' sgan vatandoshimiz buyuk shoir, porloq faylasuf va so' fi Pahhlavon Mahmud ijodidagi ruboiylarning tarbiyaviy ahamiyatiga bag' ishlangan. Shuningdek, o' rta asr musulmon xalqining axloqiy va ruhiy qadriyatlarining Pahlavon Mahmud ruboiylarida aks etishi tahlil qilingan.

Key words: ruboiy, tarbiyaviy ahmiyat, axloqiy fazilatlar, javonmardlik, futuvvat.

Kirish

O' zbek adabiyoti tarixida Paxlavon Mahmud o' zining falsafisi mazmunli ruboiylari bilan alohida o' rin egallaydi. U "Xorazm Xayyomi" nomi bilan ham tanilgan bo' lib, ijodida futuvvat javonmardlik g' oyalarini keng targ' ib qilgan. Shoiring ruboiylari nafaqat badiiy go' zalligi, balki tarbiyaviy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Ular orqali insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar, ezzulik va saxovat kabi tushunchalar yoritilgan. Pahlavon Mahmudning ruboiylari yosh avlodni ma' naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim manba bo' lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Pahlavon Mahmud ruboiylari badiiy tasvir vositalariga boy, xalqona soda va yengil uslubda, ifoda tarzi aniq va lo' nda, o' ynoqi, sershiddat tuyg' ularga yo' g' rilgan. Barcha Sharq shoirlari kabi Pahlavon mahmud ham ikki ulug' manba- Qur' oni karim va Hadisi shariflardan ta' sirlangani , ulardan ilhomlanib qalam tebratgani , qudsiy nafas ufurib turgan ruboiylaridan sezilib turadi. Ayniqsa, ilohiy ishqa tarannum etilgan va vahdati vujud falsafasini tushuntirishga bag' ishlangan ruboiylarida bu narsa yaqqol ko' zga tashlanadi. Lekin shoir ilohiy mavzular bilan chegaralanmay, zaminiy dardni ham qalamga olgan . Pahlavon Mahmud ruboiylarida ilohiy va dunyoviy dard ko' pincha birga, o' zaro qo' shilib zuhur etadi.

O' z nafsingnga bo' lgin amir , shunda mardsan,
O' zgalgara bo' lma haqir, shunda mardsan,
Yiqqaanini tepib o' tish mardlik emas,
Aftodaga bo' lgin dastgir shunda mardsan.

Pahlavon Mahmudning ushbu ruboysi insoniy fazilatlar, axloqiy komillik va mardlik tushunchasining ma' naviy jihatdan yuskak talqinidir. Unda mardlik faqat jismoniy kuch bilan emas, balki o' zini tuta bilish , kamatar bo' lish, mehr-oqibatl va adolatli bo' lish kabi insoniy xususiyatlar bilan bog' lanadi. Shuningdek, bu ruboiy mardlik tushunchasiga yangicha, chuqur ma' naviy yondashuvni ilgari suradi. U jamiyatda kuchsiz va zaif insonlarga mehr bilan munosabatda bo' lishni chin mardlik deb hisoblaydi. Mazmun jihatdan ushbu ruboilyosh avlod tarbiyasida ahamiyatli bo' lib, ularni o' z ustida ishlashga, axloqiy poklik , odob-axloq me' yorlariga rioya qilishga undaydi. Bugungi kunda jamiyatda ayni shunday ruhiy-axloqiy mezonlar yosh avlodlarga yetkazilishi, ularning qalbida insoniy va mardlik fazilatlarini qaror topshirishda muhim o' rin tutadi.

Tahlil va natijalar

Pahlavon Mahmud ruboiylarida insoniy fazilatlar , hayot mazmuni, axloqiy kamolot va ma' naviy izlanishlar asosiy o' rinda turadi. Yuqorida ruboilyda mardlikning asl mohiyati yoritilgan bo' lsa,

Dedim: ayt, umirning ma;nosi nima?

Dedi: yo sham' yoki parvona
 Dedim: bu dunyoga bino qo' ygan kim?
 Dedi: yo go' l, yo mast, yoki Devona.

Deya yozilgan ushbu ruboiysida shoir "umrning ma' nosi nima?" degan savol orgali har bir insonni o' ylantiradigan eng muhim savollardan birini ko' taradi.Bu savolga javob oddiy emas—"chaqmoq, yo sham' , yoki parvona" deyilgan . Bu uch obraz –chaqmoq, sham' , parvona– hayotning turli jihatlarini emas, balki umirning bir butun ramziy ifodasi sifatida ishlatilgan. Ruboilyning oxirgi misralarida esa shoir "bu dunyoga bino qo' ygan kim?" degan savolga "yo go' l yo mast, yoki Devona" degan javobni beradi. Bu orqaqli shoir bu o' tkinchi dunyoga go' l, mast yoki devona odamgina bino qo' yishi mumkin demoqchi.

Shunday qilib, bu ikki ruboi bir-brini to' ldiradi:biri insoniy fazilatlarni, ikkinchisi esa hayot va borliq mohiyatini izohlaydi. Har ikkisida ham chuqur tarbiyaviy va falsafiy mazmun mujassam

Xulosa

Pahlavon Mahmud ruboilyari nafaqat adabiy merosimizning durdonalari, balki ma' naviy-tarbiyaviy qo' llanmadir. Bu ruboilar yuksak badiiy va tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo' lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo' qotmagan. U inson ruhiyati, axloqiy poklik, mehnatsevarlik, sabr, kamtarlik, xalqparvarlik kabi insoniy fazilatlarni targ' ib etish orgali , jamiyatda sog' lom, ma' naviy-atli avlodni shakkantirishda katta o' rin tutadi. Shuning uchun ham bu ruboilar ta'lim-tarbiyada keng qo' llanishi lozim.

LITERATURE

- QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIASI: (Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiylar, 1(11), 386-388.
- Qodirov, A. (2014). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
- Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
- Qodirov, A., Inomjonova, M., Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
- O'G' Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
- Kobilova, Z. B. (2021). Amiri and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
- Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
- Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
- Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
- Жахонгирова, Тамила; „ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11,2,18-20,2024,
- Andreyevna, Jaxongirova Tamila; CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION, Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalarini va rivojlanish omillari, 28,1,230-233,2024,
- Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. -P. 6091-6101.
- Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.
- Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.